

**YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARI G‘OYASI BILAN
AMIR TEMUR O‘GITLARINING UYG‘UNLIGI**

*Qosimova Fazilat Xolmuminovna-TDYU huzuridagi
M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning
o‘zbek tili va adabiyot fani yetakchi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada “Qutadg‘u bilig” va Amir Temur o‘gitlarida mujassam ma’naviy-axloqiy hamda adabiy-falsafiy g‘oyalar o‘zaro qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot ikki manbada adolat, aql, rahbarlik fazilatlarini va inson komilligi kabi tamoyillarning mushtarak talqinini ochib beradi. Olingan natijalar ushbu manbalar o‘zbek ma’naviy tafakkurining uzviyligi va falsafiy yaxlitligini namoyon etuvchi uyg‘un tizimni tashkil etishini ko‘rsatadi. Ana shu uyg‘unlik milliy ma’naviy merosning davomiy va izchil taraqqiy etib kelganligini ilmiy asoslaydi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ta’lim, axloq, muomala odobi, madaniyat, ezigulik, mamlakat daxlsizligi, jamiyat rivoji, tanazzul, davlat, saltanat.

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ духовно-нравственных и литературно-философских идей, заложенных в «Кутадғу билиг» и учении Амира Темура. Исследование выявляет общность трактовки таких принципов, как справедливость, разум, лидерские качества и совершенство человека, в двух источниках. Полученные результаты показывают, что эти источники образуют стройную систему, отражающую целостность и философскую целостность узбекской духовной мысли. Эта гармония научно обосновывает непрерывное и последовательное развитие национального духовного наследия.

Ключевые слова: духовность, образование, нравственность, этикет, культура, добро, национальная целостность, общественное развитие, упадок, государство, империя.

Abstract. The article presents a comparative analysis of the spiritual-moral and literary-philosophical ideas embodied in the “Qutadg‘u Bilig” and the teachings of Amir Temur. The study reveals a common interpretation of such principles as justice, reason, leadership qualities and human perfection in two sources. The results obtained show that these sources form a harmonious system that reflects the coherence and philosophical integrity of Uzbek spiritual thought. This harmony scientifically substantiates the continuous and consistent development of the national spiritual heritage.

Keywords: spirituality, education, morality, etiquette, culture, goodness, national integrity, social development, decline, state, empire.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi-ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish darajasida, rivojlangan jamiyatimizning demokratik davlatlar yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Bu maqsadni amalga oshirish o'z navbatida ta'lim jarayoniga yangicha nazar bilan qarashni talab etadi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida bu muammo o'z dolzarbligi bilan alohida ajralib turibdi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek:

“Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz va rejalarimizning samarali taqdiri, avvlambor, davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli tafakkurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liq”. Bu muammoni hal qilishda respublikamizdagi biz pedagoglarning roli beqiyos, mas'uliyati cheksiz. Ma'naviyati boy, mustaqil fikrlay oladigan, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashda ta'lim-tarbiyani uzviylikda amalga oshirish zarur.

Bunda tarixga nazar tashlab, buyuk allomalarimizning qilgan ishlaridan, o'gitlaridan dars jarayonida foydalanish foydadan xoli bo'lmaydi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari haqida o'quvchilarga bilim berilar ekan, unda ilgari surilgan goyalarni Amir Temur o'gitlari bilan ham taqqoslash mumkin. Masalan, Yusuf Xos Hojib o'z asarlarida til odobiga alohida e'tibor beradi. Chunki nutq madaniyati, muomala odobi insonning ichki va tashqi dunyosini belgilab beradi. Yusuf Xos Hojib nazarida tildan ikki toifa odam foydalana olmaydi: birinchisi tug'ma soqovlar, keyingisi esa bilimsiz kishilar. Shoir bilimli insonlar bilan ko'proq muloqotda bo'lish kerakligini uqtiradi. Bilimli odamlarning so'z, nasihatlaridan foydalanib, insonlarga shirin muomala qilish odamgarchilikning alomati sifatida qaraladi:

Kelsa kishi yuzingga ko'rklig yuzusin ko'rungil,
Yavlaq ko'zaz tilingni, ezgu savig' tilangil.

Misrada “ezgu sav” keng ma'noda odob, axloq va yaxshi fazilatning belgisi sifatida talqin etiladi va quyidagi ma'no kelib chiqadi: “Biror kishi senga kulib qarasa, sen ham unga juda ochiq va kulgan yuz bilan boq, shirin so'z va yoqimli muomala qil, tilingni tiy”.

Amir Temur o'g'itlarida ham tilga e'tibor qaratilgan. U "Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritadi", deb ta'kidlaydi.

Shu bilan birga saroy a'yonlari g'iybat, uydurma gaplardan yiroq bo'lishlari kerakligi talab qilinadi. Sohibqiron fikricha: "Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydurma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nafsiyu zoti yomon, hasadchi, gina-kek saqlovchi, qora ko'ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Bunday odam vazirlik qilsa, davlat-u saltanat tez orada qulaydi".

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ko'plab kasb-hunarlar, ularning egalari haqidagi ma'lumotlar ham mavjud. Bek, vazir, lashkarboshi, elchi, kotib, olimlar, shoirlar, tabiblar, hunarmandlar va boshqa ko'plab kasb egalari haqida gapirar ekan, ularning sohalariga xos xususiyatlar, o'z faoliyatlarida nimalarga e'tibor qaratishlari kerakligi, har bir soha vakillari qanday fazilatlarga ega bo'lishlari kerakligi haqida atroflicha to'xtaladi.

Jumladan, beklarni adolatga chorlaydi. Asarda adolat suvga, zulm esa olovga o'xshatiladi:

Zulm yonib turgan o'tdir, yaqinlashsa kuydiradi,
Adolat suv kabidir, u oqsa ne'mat unadi.

Amir Temur ham saltanatni adolat bilan boshqarish zarur degan g'oyani ilgari surib, "Kuch-adolatda" ekanligini o'z faoliyatida isbotlab, shunday fikrlar bildiradi: "Do'st-dushmanidan kimki menga iltijo qilib kelgudek bo'lsa, do'stlarga shunday muomala qildimki, do'stligi yanada ortdi, dushmanlarga esa shunday muomalada bo'ldimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi. Menga iltijo qilib kelgan badkirdor odamlar, xoh menga yaxshilik qilgan bo'lsinlar, xoh yomonlik, saltanat taxtiga o'tirganimdan keyin ularni xayr-ehsonlarim bilan hijolatga qo'ydim. Menga qilgan yomonliklarini qilmagandek ko'rib, ularning yomon qilmishlari daftari ustiga avf qalamini tortdim".

Shu bilan birga buyuk sohibqiron: "Sulton har narsada adolatpesha o'lsun, qoshida insofli, adolatli vazirlar saqlasin, toki podshoh zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin", - deydi.

Yusuf Xos Hojib ham jamiyatning rivoji yoki tanazzuli el-yurtga ko'rsatiladigan adolat yoki zulm bilan chambarchas bog'liq ekanligini qayta-qayta uqtiradi.

Adib lashkarboshi, elchi, olim, vazir, xazinachilarga ham to'xtaladi, uning fikricha lashkarboshi alp, mergan, botir, arslon yurakli, qoplon bilakli, to'ng'izdek shiddatli, bo'ridek kuchli, ayiqdek qahrli, tulkidek ayyor, zag'izg'ondek hushyor, qoya

quzg'unidek o'tkirko'z, arslonday himmatli, tunlari boyqushdek uyg'oq bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi .

Elchilar esa adib nazarida aql-idrok va bilimli bo'lish bilan birga so'zga chechan, bir necha tilni mukammal biladigan kishilar bo'lmog'i kerak.

Olimlar haqida shunday fikr bildiradi:

Olamda bu olim, donolar bo'lmaganida,
Yerda yemish ekilib unmagan bo'lur edi.

Adib vazir va kotiblar haqida ham o'z mulohazalarini bildiradi:

Beklar sirlarini qanchalik sir tutsalar ham,
Ikki kishiga so'zlashlari shart bo'ladi.
Biri - kotib, yana biri - vazir,
So'z ochgach, injiqliklarini ko'tarish kerak.

Amir Temur ham amaldorlarning faoliyatiga talabchan bo'lgan. Uning vazirlarga qo'ygan talabi fikrimiz dalilidir. Sohibqiron shunday deydi:

“Vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishlari lozim; birinchisi - asillik, toza nasllik; ikkinchisi - aql-farosatlilik; uchinchisi- sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik; to'rtinchisi - sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, bunday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Bunday vazirga 4 imtiyoz: ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin. Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muammolarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida to'rtta yetakchi qahramon bor. Bular quyidagilar:

Adolat - podsho Kuntug'di;

Davlat – vazir Oyto'ldi;

Aql - vazirning o'g'li O'gdulmish;

Qanoat - hushyor qiluvchi, O'zg'urmish;

Ezgulikning bosh timsoli Kuntug'di, ayni paytda, u Adolatning ham ramzidir. U doimo mamlakat, el-yurt taqdirini o'ylaydi, hech qachon o'zi yoki o'z manfaatlari doirasida qolib ketmaydi. Uning uchun xalq baxti, mamlakat daxlsizligi, el-yurt obodligidan ortiq baxt yo'q. U ko'zlagan maqsadlarini amalga oshirish uchun

jamiyatdagi ilg'or fikrli, yangilik va ezgulik targ'ibotchilari, himoyachilari zarurligini anglaydi va doimo ularni izlab, topib, mamlakatni boshqarish ishlariga jalb etadi. (Adib ta'kidlagan bu xislatlar sohibqiron Amir Temur fazilatida mujassam). Oyto'ldi Davlat ramzi sifatida butun kuch va imkoniyatini mamlakat ravnaqiga sarflaydi. O'gdulmish aql bilan ziynatlangan demakdir. Undagi bosh fazilat har qanday hodisaga aql ko'zi bilan qarashdir. O'zg'urmish - qanoat timsoli. U behuda ishlar bilan band bo'lib, har xil mayda-chuyda orzu-havaslariga ovunib qolishdan ogohlantiradi.

Umuman, Yusuf Xos Hojib bu asardagi obrazlar timsoli orqali Davlat - adolat va aql bilan boshqarilmog'i kerak, degan fikrni ilgari suradi.

Aynan shu g'oya Amir Temur davlat boshqaruvi uchun ham xosdir. Adib o'z qarashlarini badiiy obrazlar orqali ifoda etsa, Amir Temur o'z e'tiqodini to'g'ridan-to'g'ri ta'kidlab, hayotda 5ta narsaga amal qilganini ta'kidlaydi:

“Men hayotim mobaynida besh narsaga qat'iy e'tiqod qo'ydim va hamishalik ularga amal qildim. Ular ushbulardir:

Olloh-ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig'insang istagan murod-u maqsadingga yetkazadi.

Tafakkur-fikrlash va mushohada qobiliyati, quvvai hofizasi kuchli inson har qanday mushkulu mushkulotni oson qilish yo'lini topa oladi.

Qilich - ul yigitning yo'ldoshi, el-yurt osoyishtaligining posboni, har qanday dushmani mahv etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni dinga solmoq mumkin.

Imon - ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turguvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, el-u xalqning or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi.

Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalashda buyuk allomalarning hayot yo'li, ularning o'gitlari hozirgi kunda ham dasturulamal bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan farzandlarimiz qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar o'z kasbining fidoyisi, mohir ustasi bo'lishi kerak.